



## “OMMAVIY DIPLOMATIYA”DA JANUBIY KOREYANING O‘ZIGA XOS YONDASHUVI

**Narziyeva Rayxon Ramazonovna**

BuxDU Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha)

yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Telefon: +998936531191

E-mail: rayxonnarziyeva98@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14644437>

Xalqaro munosabatlar tizimida diplomatiya xalqaro aloqalarni, ittifoqlar, shartnomalar va kelishuvlar tuzishni amalga oshirish san‘ati yoki amaliyotini anglatib, buni ko‘p hollarda tashqi ishlar vazirligi bilan bog‘laymiz. Lekin diplomatiyaning ikkinchi ta‘rifi ham mavjud bo‘lib, bu “odamlar bilan muomala qilishda muloyimlik va mahorat”dir. Aynan shu ikkinchi ta‘rif “ommaviy diplomatiya” yoki “xalq diplomatiyasi” atamasi bilan ifodalanib, bu atama yaqin tariximiz, ya‘ni XX asrning 60-yillarida paydo bo‘lgan, ungacha bu atama “targ‘ibot” sifatida ishlatilib kelingan.

Janubiy Koreya ommaviy diplomatiya sohasida kech kelgan mamlakatlardan biri hisoblanib, 2010-yilda bu soha rasman boshlandi va unga 2013-yildan boshlab ko‘proq e‘tibor qaratildi. Ommaviy diplomatiyaning vatani AQSH va boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi Koreyada ham targ‘ibot, milliy brendlash va madaniy diplomatiya kabi tushunchalar ishlatilgan, ammo ular biroz farqlangan. Koreya jamg‘armasi ommaviy diplomatiyani mustahkamlash maqsadida rasmiy diplomatiyani qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor qaratdi va Koreyaning nodavlat diplomatiya tashkilotlari bilan hamkorlik qildi. O‘shandan beri Koreya Milliy Diplomatik Akademiyasi ommaviy diplomatiyani rivojlantirishda akademik munozara va tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yetakchi tashkilotlardan biriga aylandi.

Janubiy Koreyada “palli-palli” madaniyati deb ataladigan tushuncha mavjud bo‘lib, bu aynan harakatga nisbatan ishlatilib, “tez-tez” ma‘nosini anglatadi. Koreya ommaviy diplomatiyasi siyosatining tarixi ham ushbu madaniyatini aks ettiradi. Xususan, Janubiy Koreya 2010-yilda ommaviy diplomatiya siyosatini rasman boshlashda juda kechikkan bo‘lishiga qaramay, bu sohadagi eng so‘nggi tendensiyalarni tezda quvib yetishdagi yutuqlari diqqatga sazovor. 2016-yil Koreyaning ommaviy diplomatiyasi uchun muhim yil bo‘lib, shu yili “Ommaviy Diplomatiya to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Janubiy Koreyaning ommaviy diplomatiyasida uning madaniy o‘ziga xosligi va bu madaniyatning butun dunyo bo‘ylab yoyishga harakat qilishi o‘ziga xosdir.





Madaniy sanoatni rivojlantirishni milliy maqsad sifatida e'lon qilgan birinchi rahbar bu Prezident Kim De Jung bo'lib, aynan u Yaponiya madaniyatining import qilinishiga ruxsat berdi va shu orqali ikki mamlakat o'rtasida ijodiy kontent almashinuvi uchun hissa qo'shdi.

Tan olish kerakki, so'nggi yigirma yil davomida Janubiy Koreyaning madaniy kontent sohasi sezilarli darajada rivojlandi. Bu rivojlanishga bozorni liberallashtirish, globallashtirish, hukumat subsidiyalari va siyosiy choralari kabi omillar sabab bo'ldi. Janubiy Koreyaning ommaviy kontenti nafaqat milliard dollarlik soha darajasiga yetdi, balki u Janubiy Koreya milliy chegaralaridan tashqariga chiqib, xorijiy auditoriya orasida ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Koreya ommaviy madaniyatining globallashtirish "hallyu" ya'ni "koreys to'liqini" deb atalib, bu odatda koreys madaniy mahsulotlarining chet elda ommalashuvi sifatida tushuniladi.

"Koreys to'liqini"ning muvaffaqiyati ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ichki omillardan Koreya ommaviy madaniyati iqtisodiy imkoniyatlarning yaxshilanishi va shunga mos ravishda yashash standartlarining oshishi bilan qo'llab-quvvatlanishi edi. Madaniy mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi yirik koreys korporatsiyalari tomonidan katta sarmoyalar va intellektual mulk huquqlarining mustahkamlanishi bilan ta'minlandi. Shuningdek, AQSH ta'siri koreys va amerika musiqasining mahalliy va xorijiy auditoriyalar tomonidan ijobiy qabul qilingan holda uyg'unlashishiga yordam berdi.

2008-yilda prezident Li Myong Bak Janubiy Koreyaning global imiji va milliy brendi uning milliy kuchiga mos kelmayotganini tushungan holda Koreyaning xalqaro mavqei va brend imidjini yaxshilash maqsadida "Global Korea" shiori ostida yangi tashqi siyosat tashabbuslarini amalga oshirdi. Ushbu tashabbuslarni muvofiqlashtirish uchun prezident Li Milliy brendlash bo'yicha Prezident Kengashini tashkil etdi va Koreya o'zining brend imidjini yaxshilashni, Millatlar Brendi Indeksiga kirgan 190 mamlakat ichida 33-o'rindan 2013-yilga kelib 15-o'ringa ko'tarilishni maqsad qilganini e'lon qildi. Shu munosabat bilan, 2009-yilda kengash 10 bandlik harakatlar rejasi ishlab chiqdi, shundan biri chet ellik talabalarga Koreyaning imidjini yaxshilashga yordam berish uchun mo'ljallangan Global Korea Scholarship ya'ni GKS grant dasturi bo'lib, bu dastur Ta'lim vazirligi qoshidagi Milliy Xalqaro Ta'lim Instituti tomonidan boshqarilishi belgilandi.

Janubiy Koreyada ommaviy diplomatiya va madaniy diplomatiya so'nggi o'n yillikda ko'proq e'tibor va tan olinishga sazovor bo'ldgan bo'lsa-da, Koreya hukumati bu sohada hali to'liq tushuncha va amaliy doiradagi siyosiy dasturni





ishlab chiqmagan. Birinchidan, bugungi kunda Koreyadagi ommaviy diplomatiya oldidagi asosiy muammo siyosiy qarorlar uzluksizligining yetishmasligidir. Chunki ommaviy diplomatiya uzoq muddatli istiqbol bilan amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, uning foydasi darhol ko'rinmaydi. Shuning uchun hukumat siyosatning samarali bo'lishi uchun ular uzoq muddat davomida amalga oshirilishini ta'minlashi kerak.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, bugungi kunda hali "ommaviy diplomatiya" tushunchasi ko'p davlatlarga yetib bormagan bir sharoitda Janubiy Koreyaning bu sohadagi islohot va sa'y-harakatlari diqqatga sazovordir. Hukumatning "koreys to'lqini"ning butun dunyoga yoyilishi, koreys madaniyati va tilining ahamiyatini oshirish uchun qilgan islohotlari garchand kutish pozitsiyasini talab qilsa-da, buning ijobiy natijasi ham iqtisodiyotning, ham madaniyatning, ham milliy brendning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Janubiy Koreyaning ommaviy diplomatiyasi unga xalqaro maydonda keng ta'sir kuchiga ega bo'lish imkonini berdi. Oxirgi yillarda esa "xalq diplomatiyasi"dagi strategiyalarning asosi "Koreyaning jozibasini butun dunyoga yoyish" maqsadi bilan amalga oshirilmoqda Mamlakat nafaqat iqtisodiy va texnologik jihatdan rivojlangan davlat sifatida, balki boy madaniyat va barqaror rivojlanish tarafdori sifatida ham o'zini ko'rsatmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Charles K.Armstrong. The Koreas. – New York: Routledge, 2014. – 132 p.
2. Эргашев. Ш. Жаҳон тарихи (Энг янги давр. IV қисм). – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 672 б.
3. Jae-Jung S., Kim M. Challenges of modernization and governance in South Korea. – New York: Palgrave Macmillan, 2017. – 227 p.
4. Ki-baik Lee. A new history of Korea. – Seoul:Ilchokak publishers, 2017. – 476 p.
5. Kadir Ayhan. Korea's soft power and public diplomacy. – Seoul: Hangang Network, 2017. – 255 p.
6. Kwang-jin Choi. The Republic of Korea's public diplomacy strategy: history and current status. – Los Angeles: Figueroa Press, 2019. – 58 p.
7. Michael J.Seth. A concise history of Korea. – London: Rowman and Littlefield, 2020. – 595 p.
8. Park Gil-Sung. Development and globalization in South Korea. – Seoul: Korea University press, 2022. – 248 p.

